

**“TASDIQLAYMAN”**

Urganch innovatsion universiteti  
ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektori, dotsent



M.Masharipov

26 fevral 2025-yil

Urganch innovatsion universitetida iqtidorli talabalar,  
professor-o'qituvchilar hamda “Startup Garage” xususiy kompaniyasi  
xodimlari ishtirokida tashkil qilingan uchrashuv to'g'risida

## BAYONNOMA

26.02.2025-yil

Urganch shahri


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2021-yil 12-maydagi 02-PA-1-8009-son bayoni 20.8-bandi “Har bir oliy ta'lim muassasalari rektorlari tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida o'qituvchi, talabalarga va yoshlarga puxta o'rgatadigan innovatsion ishlanmalar, g'oyalar, robototexnika, IT dasturlash sohasidagi yosh olimlarni puxta o'rgatadigan markazlarni tashkil etish” to'g'risidagi topshirig'i hamda 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limining 2024/2025-o'quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasidagi 20-band (talabalar va professor-o'qituvchilarni startap loyihamiga jalb qilish)ga muvofiq Urganch innovatsion universitetida iqtidorli talabalar, professor-o'qituvchilar hamda “Startup Garage” xususiy kompaniyasi xodimlari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Startup Garage – innovatsion va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbus bo'lib, O'zbekistonda startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, sarmoya jalb qilish va yangi ish o'rinalarini yaratishga yo'naltirilgan. Ushbu loyiha orqali, yosh va iste'dodli tadbirkorlarga zarur resurslar,

bilimlar va ko'nikmalar taqdim etiladi, ular o'z loyihalarini ushbu joyda turib muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Uchrashuvda "**Startup Garage**" kompaniyasi xodimlari tomonidan iqtidorli talabalarga va shu sohaga qiziquvchi professor-o'qituvchilarga o'z startaplarini g'oyadan boshlab MVP darajasiga olib chiqish, yoshlarning innovatsion g'oyalarini muvaffaqiyatli bizneslarga aylantirish, startap boshlashni reja qilganlar, startaplar dunyosiga chuqur kirib borishni maqsad qilgan yoshlarni mo'ljallangan keng qamrovli founders school o'quv dasturi, startap loyihalarni amalga oshirish mumkin bo'lgan yetti xil yo'nalish, shuningdek, o'z startap g'oyasiga ega yoshlarning dasturga qay tartibda qo'shilishi, kimga murojaat qilishi, dasturdagi keng qamrovli mavzular, ushbu dasturga qo'shilishning foydali jihatlari haqida ma'lumotlar berildi.

Uchrashuv so'ngida talabalar ushbu muassasa, unda talabalarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, o'z ilmiy-innovatsion g'oyalarini qay tartibda rivojlantirish hamda startup garage dasturi haqida o'zlar qiziqqan savollarga javob oldilar.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi boshlig'i:**




A. Abdullayev

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi mutaxassisi:**



Sh. Yusupova

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo'limi ish yurituvchisi:**



L. Og'aboyeva

## Uchrashuvdan lavhalar

